

**Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy mahorati**

Andijon pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Mahmudov Zoirbek Tohirjon o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boburiylar saltanatining asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy mahorati haqida so'z boradi. Maqolada Boburning jang paytlarida qo'llag'gan jang uslublari va mudofaa tizimi haqida ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, ushbu maqolada Boburning jang san'ati haqida bildirilgan e'tiroflar ham mujassamlashgan.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, "Boburnoma", Kobul, Panipat jangi, Ibrohim Lo'diy.

Аннотация: В данной статье рассказывается о военном мастерстве Захириддина Мухаммада Бабура, основателя династии Бабуров. В статье приведены сведения о методах боя и системе защиты, которые использовал Бакур во время сражений. Также в этой статье собраны признания Бабура о боевых искусствах.

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бакур, «Бабурнома», Кабул, битва при Панипате, Ибрагим Лоди.

Abstract: This article talks about the military skills of Zahiriddin Muhammad Babur, the founder of the Babur kingdom. The article provides information about the fighting methods and defense system used by Babur during the battles. Also, this article contains Babur's confessions about martial arts.

Key words: Zahiriddin Muhammad Babur, "Baburnoma", Kabul, Battle of Panipat, Ibrahim Lodi.

Kirish:

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483 — 1530) jahonga mashhur «Boburnoma» asari, dilbar g'azallarini jamlagan she'riy devoni, aruzga oid «Muxtasar»i va yana bir necha asarlari bilan shuhrat topgan ulug' shaxs. Albatta, uning harbiy yurishlari, g'alaba va mag'lubiyatlari haqida ham tarixchi olimlarimiz anchagina fikrlar bildirishgan. «Boburnoma»ni sinchiklab mutolaa etarkanmiz, bu temuriyzodaning yoshligidan bobosi Amir Temur imperiyasini qayta tiklashda, keng miqyosdagi hududda yagona, mustahkam



siyosatni yurgizishga intilishida, orzularini ma'lum darajada ro'yobga chiqarishda nimalarga asoslangani haqida o'yladik. Biz bu yechimni Boburning izchil shaxsiy jasorati, o'tkir tafakkuri, harbiy mahoratida ko'rdik.

Adabiyot tahlili va metodlar:

Bobur temuriylar saltanatiga tashqaridan bo'ladigan tahdid va hujumlarni birgalashib bartaraf etishga o'ta jiddiy yondoshgan. Bobur Movarounnahrda, Hisorda olib borgan janglarda Sulton Mahmud mirzoning mashhur beki Xisravshoh bilan ko'p to'qnashgan. «Boburnoma»da muallif bu shaxs haqida ancha batafsil ma'lumot bergan. Tole unga rost kelib, lashkarlari soni 20-30 mingdan oshganini ta'kidlagan Bobur, Xisravshohda muhoraba savodining chalaligi, urush vaziyatini sarkarda sifatida yaxshi bilmasligi bois sharmandalarcha shikast topganini yozadi. Bungacha u Xisravshohshaxsiyatiga baho berar ekan, uni shaxs sifatida ham, lashkarboshi sifatida ham salbiy baholaydi («agarchi namozi qilur edi va taomda parhiz qilur edi vale tiyra va fosiq edi, gavdan va befahm va bevafo va haromnamak kishi edi...») Shayboniyxon Hirotni egallagach, Qunduzda makon topgan Xisravshohni ham ta'qib etadi. Xisravshoh Bobur poytaxt etgan Kobulga qarab yurish qilarkan, o'zining past axloqligi, zulmi bois lashkarlari mol-mulklarini ko'tarib uy-uylariga ketishadi, ko'pchiligi Bobur tomon o'tadi. Bunday vaziyatda Bobur iqtidorli lashkarboshi sifatida ish ko'radi: Hirotdan birga qaytayotgan kam sonli askarlari bilan Hindukush tog'idan qiyinchilik bilan oshganiga qaramay, Dushi vodiysidagi Andarob daryosi yoqasida harbiy jihatdan kuchli, ammo ayni paytda zabunlikka yuz tutayotgan g'animi Xisravshoh bilan uchrashadi. O'zi og'ir holatda, Shayboniyxon ta'qibidan Qandahordan Kobulga chekinayotgan bo'lsa-da, yuksak mardlik, shijoat, o'ziga ishonch bilan minglab lashkarli Xisravshohni sulhga majbur etadi. Uning bu harbiy taktikasi keyinroq unga Hindistonda kam sonli lashkar bilan ko'p sonli g'anim ustidan g'olib chiqishida yaxshi tajriba sifatida juda qo'l keladi.

Dastlab Boburni «bir lak, balki ikki lak» (yuz ming, balki ikki yuz ming) lashkari, ikki mingdan ortiq jangovar fili va qanchadan-qancha harbiy vosita va quroli bo'lgan hind



sarkardasi Ibrohim Lo'diyga qarshi kurashish vahimasi bosadi. Biroq ko'plab muhorabalarni ko'rgan, Xisravshohdek dongdor sarkardani idrok va urush savodi bilan yenggan Bobur, avvalo, Lo'diy qalamravidagi holatni o'rganadi. Hindistondagi nomuvofiq siyosiy holat, rojalarning tarqoqligi, ularning Ibrohim Lo'diy hukmronligidan bezgani Boburning bu o'lkaga kirishi uchun qulay sharoit tug'diradi.

Bobur Panipat jangida, bugungi kun tili bilan aytganda, razvedkadan keng foydalangan. U joylarga o'z kishilarini yuborib, ma'lumot yig'gan («Ul yurttin daryo yoqalay quyig'a boqa ikki ko'ch ko'chulub edikim, til tuta borg'onlardin Haydarquli xabar keltirdikim, Dovudxon Haytimxonni besh-olti ming kishi bila miyoni Duob sari kechurubtur. Uch-to'rt kuruh Ibrohimning doirasidin berirak doira urub o'lturubtur»; «Xoja Kalonning navkari Haydarqulini til tuta yuborildi»). «Boburnoma»da Boburning razvedka xizmatidan keng foydalangani haqida ko'pgina dalillar borki, bu uning harb mahoratini tahlil etishda alohida mavzu bo'lib, maxsus tadqiqotni taqozo etadi.

Natija

Bobur, avvalo, raqibi Ibrohim Lo'diy xarakterining nozik jihatlarigacha, oila a'zolari, onasi, xullas, kerakli deb hisoblagan jamiki ma'lumotlarga ega bo'lganidan so'nggina unga qarshi kurashga kiradi. Masalan, Ibrohim Lo'diy qanchalik boy bo'lmasin, tabiatida mumsiklik g'olibligini bilgan Bobur Hindistonni zabt etgandan so'ng Ibrohim qo'l ostidagilarni o'ziga tobe etib, yer, mulk, katta in'omlar beradi.

Ibrohim Lo'diy haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lgan Bobur uning xususiyatlarini quyidagicha qisqa, aniq bayon etadi: «Tengri rost kelturdi, ne yigitini rozi qila oldi, ne xazinasini ulasha oldi. Qaydin yigitini rizo qila olurkim, tabiatig'a imsok ko'p g'olib edi. O'zi yarmoq yig'ishtirmoqqa behad tolib, betajriba yigit edi. Ne kelishi saranjomliq edi, ne turishi, ne yurushi ehtimomliq edi, ne urushi». Ushbu parchadagi oxirgi iboraga e'tibor beraylik. Unda Lo'diyning urushga layoqati yo'qligi barcha kamchiliklaridan so'ng ifoda etilgan. Bu bilan Bobur urush maydonidagi yutuq, muhoraba ilmi, avvalo, sarkardaning yuksak insoniy xususiyati, qo'l ostidagilarga odilona munosabati, shaxsiy namuna ko'rsatishi bilan bog'liqligini bildirmoqda. Buni biz yuqorida



muallifning Xisravshoh, Shayboniyxon, Husayn Boyqaro va boshqa beklarga bergan baholarida ham ko'rdik.

Bobur raqibi Ibrohim Lo'diy bilan bog'liq hind o'lkasiga oid barcha ma'lumotlarga ega bo'lgach, urushga tayyorlanishga kirishadi: xabarchilari (razvedka) orqali yetkazilgan ma'lumotlarini jamlaydi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi. Razvedka ma'lumotlarida dushmanning qadam-baqadam harakati, soni, qaysi mahalda qo'nim topganigacha aniqlikda berilgan. Ibrohim kuchini aniq tasavvur etish uchun «til» qo'lga olish ham rejalashtirilgan: «Ibrohim o'rdusidin ham mutavotir xabarlar kela boshladikim, bir kuruh-ikki kuruh ko'chub har yurtta ikki-uch kun maqom qila-qila keladur. Biz ham mutavajjih bo'lub, Shohoboddin ora ikki qo'nub, Juun daryosining yoqosig'a Sarsava to'g'risi kelib tushtuk. Xoja Kalonning navkari Haydarqulini til tuta yuborildi». Bobur jangga kirishishdan oldin bu yerning iqlimidan tortib, geografik sharoitigacha inobatga olgan.

Ana shu tadbirlar maromiga yetgandan so'ng urushni olib borishga hozirlik ko'riladi. Bunda Bobur avvalgi muhorabalarda orttirgan tajribasidan kelib chiqib, qurol-aslahasiga o'zgartishlar kiritadi, «Rum dasturi bila» harbiy arobalarni urushga moslaydi. Bu ish ancha vaqtni olsa-da, sabr bilan kutadi: «Rum dasturi bila arobalarning orasida zanjir o'rniga xomidin arg'amchilar eshib, bir-biriga bog'laydilar. Har ikki aroba orasida olti-yetti to'ra bo'lg'ay. Tufangandozlar bu aroba va to'ralarning keynida turub, tufang otqaylar. Bu asbobning tartibi jihatidin besh-olti kun bu yurtta tavaqquf bo'ldi».

«Boburnoma»dan keltirilgan yuqoridagi parcha harbiy san'atimiz tarixiga oid darslikka kiritilib, tahlil etilib, bugungi yosh zobitu askarlarga dastur sifatida taqdim etilishi lozim. E'tibor bersak, bunda Bobur muhoraba maydonida o'z lashkarlarining jang asnosida omon qolishini o'ylab, tufangchilardan so'ng piyoda va boshqa kuchlarni joylashtirganiga guvoh bo'lamiz. U mohir sarkarda sifatida g'alabaga eltuvchi bu rejasi bitmaguncha dushman sari intilishni ma'qul ko'rmagan. «Boburnoma»da harbiy qo'llanma va darsliklarga kiritish mumkin bo'lgan bunday misollar serob.

Ibrohim Lo'diyning ikki mingga yaqin urushqoq fili Boburni ko'p o'ylantiradi. Buning ustiga, jangovar kemalari ham dushmanning kuch jihatdan ustunligini ta'minlagan. Shu bois, u jangovar to'p yasash ustida jiddiy ishlaydi. Uning Usta Aliquli bilan birga olib



borgan uzoq izlanishlari o'zining yuksak natijasini beradi: misli ko'rilmagan, 1500 — 2000 metrgacha bo'lgan nishonni urishga qodir to'plar yaratiladi. Bu aslahadan Ibrohim Lo'diyning to'pni ko'rmagan askarlari vahimaga tushadi, to'plardan g'animning kemalariga qattiq zarbalar beriladi: «Bir necha kun ko'pruk bog'laguncha ustod Aliquli yaxshilar tosh otti. Avvalg'i kun sekkiz tosh otti, ikkinchi kun o'n olti tosh otti».

Bobur urushga to'la-to'kis hozirlik ko'rgandan so'ng, oxirgi masalaga o'tadi, ya'ni bo'lajak muhorabani barcha bek, sulton va askarlari bilan maslahatlashib oladi. «Boburnoma»dagi dalillar shundan guvohlik beradiki, Bobur qaysi muhoraba, jang va to'qnashuvga bormasin, o'z qo'l ostidagilarining maslahatisiz ish ko'rmagan. Bugungi ibora bilan aytganda, harb ishini demokratik asosda olib borgan. Ayrim holatlarda u o'zi, hech kimning fikrini qabul qilmay hukm chiqargan. Masalan, Hindistondagi yurishlaridan birini boshlash arafasida munajjimi uni jangga kirishdan to'xtatmoqchi bo'ladi. Biroq o'z kuchi, askarlari shijoatiga ishongan Bobur jasorat ko'rsatib, muhorabani boshlaydi va g'alabaga erishadi: «Muhammad Sharif munajjim shumnafas agarchi manga (ya'ni Boburga — H.Q.) aytur yorosi yo'q edi, har kimga yo'liqsa mubolag'alar bila aytur edikim: «Bu ayyomda Mirrix g'arb soridur, har kim bu tarafdin urushsa mag'lub bo'lur»... Aning bu parishon so'zlarig'a go'sh qilmay, qilur ishlarimizni tikilmay, urush ishida bajid va masof qilmoqqa mustaid bo'lduk».

Uning qo'l ostidagilari bilan bamaslahat ish ko'rishi ko'pincha yaxshi natijalar bilan tugagan, lashkarboshi sifatidagi obro'sining yuksalishiga sabab bo'lgan. Masalan, u Ahmad Tanbal bilan olib borgan urushning eng murakkab lahzasida o'z qarorini beklari bilan hamfikirlikda hal qilishni ma'qul ko'radi: «Urushqa ta'yin bo'lg'onlarni yerlik — yeriga turg'uzub, mashvarat qilmoqqa otamning go'rxonasiga kelib tushub, Jahongir Mirzoni ham tiladim. Muhammad Do'st yondi, Shayx Boyazid bila Qanbar Alibek keldilar. Maqbaraning janubiy ayvonida mashvarat qilmoqda eduk...»

Muhokama:

Xullas, Ibrohim Lo'diyga qarshi urush boshlashdan oldin Bobur hammaning rizoligini oladi, bo'lajak qattiq urush sharoiti bilan beklarini tanishtirib, urush rejasini o'rta qo'yadi: «Va



bu asbob va olot tayyor va mukammal bo'lg'ondan so'ng, tamom beklarni va so'z bilur o'bdon yigitlarni dag'i kengashiga tilab, om kengash qilib, ra'ylar munga qaror toptikim, Panipat shahredur, mahallot va uylari qalin, har taraf mahall ot va uylar bo'lur, yana atrofini aroba va to'ra bila berkitib, tufangandoz va yayoqni aroba va to'ra orqasida ta'yin qilmoq kerak».

«Boburnoma»da Panipat jangi batafsil bayon etilgan. Unda tadbirkor, ishbilarmon, mohir sarkarda, qo'rqmas jangchi Boburning ichki kechinmalari bilan birga, yuksak harbiy jasorati, muhoraba mahorati turli qirralarda o'z aksini topgan. Bu qonli, nisbatan uzoq muhoraba har ikkala tomon uchun ham hisobsiz qurbonliklarni «hadya» etgan.

Urush Bobur foydasiga hal bo'lib, u juda kam sonli lashkari bilan qariyb ikki yuz ming jangchi, kuchli harbiy aslaha va vositalarga ega Ibrohim Lo'diy ustidan g'alaba qozonadi. Muhorabada g'olib kelish uchun lashkar soni muhim emasligini, harbiy savod, mardlik va jasorat, idrok va ijodkorlik bilan birga sarkardaning yuksak insoniy fazilatlari, xiyonatga murosasizligini bosh omil deb hisoblagan Zahiriddin Bobur bu daf'a ham haq bo'lib chiqadi — uning harbiy nazariy qarashlari yana bir karra isbotini topadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Biz yuqorida Zahiriddin Muhammad Bobur harbiy mahoratining ayrim qirralarini yoritishga urindik, xolos. Buyuk sarkardaning harbiy iste'dodiga oid sinchiklab o'rganiladigan jihatlar ko'p. Urushning salbiy oqibati, bek va zobitlarning xiyonatkorligi, maqsadsiz urush — umr zavoli ekanligi, harbiy safarbarlik sirlari, oddiy askar jasorati va unga Boburning munosabati, qal'a qurish san'ati va uni berkitish muammosi, qo'rg'onning joyini tanlash sirlari, muhoraba olib borishda joyning strategik ahamiyati, armiya va oziqa zahirasi, asirga munosabat, harbiy hiylalar va uni o'rnida qo'llash, razvedka va parol, muhorabani boshqarishda shaxsning mavqei, davlat boshlig'ining yurt boshqarish layoqati va boshqa masalalar shular jumlasidan. Bular orasida eng diqqatga loyiq jihat — bu Zahiriddin Boburning jang maydonidagi shaxsiy jasorati mavzuidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Boburnoma. Toshkent-1990-yil.

2. G'ofurjon Satimov, Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida Boburiylar davri. Toshkent-2008-yil.

3. N.G'. Nizomiddinov. (XVI-XIX asr) Buyuk Boburiylar tarixi.

4. www.kh-davron.uz

5. bilimlar.uz

